

**CENTRAL ASIAN MEDICAL UNIVERSITY XALQARO TIBBIYOT  
UNIVERSITETI KENGASHI  
N I Z O M I**

**1. Umumiy qoidalar**

**1.1.** O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2011 yil 3 dekabrda “Namunaviy tartib va nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 487-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasining Kengashi to‘g‘risida”gi namunaviy Nizomga muvofiq Kengashining faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

**1.2.** Ushbu Nizom CAMU Kengashi uchun asosiy me‘yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi.

CAMUning faoliyatiga tegishli asosiy masalalarni ko‘rib chiqish uchun rektor raisligida universitet Kengashi tashkil etiladi.

**1.3.** Kengash tarkibi rektor, prorektorlar, fakultet dekanlari, universitet tarkibiga kiruvchi mustaqil tashkilot va tarmoqlar direktorlari, kafedralar mudiri, shuningdek, jamoat tashkilotlari rahbarlaridan tashkil etiladi. Kengashning boshqa a‘zolari umumiy majlisda yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar. Professor-o‘qituvchilar tarkibidan Kengashga saylanuvchi a‘zolarining soni rektorning buyrug‘i bilan belgilanadi. Kengash tarkibiga universitetning muayyan yo‘nalish muammolari bo‘yicha ishlayotgan yirik olim va mutaxassislari ham kiritilishi mumkin. Vakolat muddati - 5 yil.

**1.4.** Kengash tarkibi CAMU rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Har o‘quv yilining boshida, turli sabablarga ko‘ra Kengash tarkibidan chiqqanlar o‘rniga, yangi a‘zolar saylanadi yoki nizom bo‘yicha kiritiladi. Kengash a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning o‘rniga tayinlangan shaxs lavozimiga ko‘ra a‘zolar tarkibiga kiritiladi.

**2. Kengashning maqsad va vazifalari**

**2.1.** Kengashning maqsadi - CAMU jamoasi sa‘y-harakatlari, intellektual salohiyati va boshqa barcha imkoniyatlarni O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonunlarida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta‘minlash, oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti talablari darajasida mukammal bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘lgan professional mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirishdan iborat.

**2.2.** CAMUning Kengashi:

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarining qat'iy bajarilishini o'rganib chiqadi hamda ustuvor masalalar bo'yicha tavsiya va topshiriqlar belgilaydi;
- kafedralarning o'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlari to'g'risidagi, universitet klinikalarining faoliyati to'g'risidagi, qabul komissiyasining qabul natijalari to'g'risidagi, shuningdek Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi tomonidan bitiruvchi mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji, buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi hamda tegishli qaror qabul qiladi;
- ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejalari ijrosi, professor-o'qituvchilar tarkibining malaka oshirish va qayta tayyorlash masalalarini muhokama qiladi hamda tegishli qarorlarni qabul qiladi;
- universitet rivojlanishining yillik va istiqbolli rejalarini tasdiqlaydi, moddiy-texnik ta'minot va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini muhokama qiladi hamda tegishli qarorlarni qabul qiladi;
- fakultet va kafedralarni ochish, tugatish, o'zgartirish, shuningdek Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi takliflarini hisobga olgan holda yangi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish yoki to'xtatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha qaror qabul qiladi;
- "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq professor- o'qituvchilar lavozimlarini egallash uchun tanlovlar o'tkazadi;
- professor, dotsent ilmiy unvonini olishga intilayotgan izlanuvchilarning hujjatlarini ko'rib chiqadi va belgilangan tartibda ilmiy unvonga tasdiqlashga taqdim etadi;
- CAMU bitiruvchilari hamda professor-o'qituvchilarining ingliz tilini bilishlarini ta'minlash va kompyuter texnologiyalari, Internetdan foydalana olishlari bo'yicha tayanch ko'nikmalarni shakllantirish masalalarini muhokama qiladi va chora-tadbirlar belgilaydi;
- ta'lim jarayonining o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligi, yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari, shuningdek innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga asoslangan o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlash va nashr etish masalalarini muhokama qiladi;
- doktorant, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchi institutlariga nomzodlarni tavsiya etadi, ularning shaxsiy rejalari va dissertatsiyalari mavzularini tasdiqlaydi;
- iqtidorli talabalar safidan va professor-o'qituvchilar tarkibidan nomzodlarni turli jamg'armalar va vazirlikdan e'lon qilinayotgan grantlar orqali xorijiy oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirish va stajirovka o'tishga tavsiya etadi;

- CAMU iqtidorli talabalari va stajer-tadqiqotchi - izlanuvchilari safidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi va nomli davlat stipendiyalari tanlovida ishtirok etadigan nomzodlarni tavsiya etadi;
- Talabalarning jismoniy tarbiyasi va ularning sog‘liqlarini yanada yaxshilash bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqadi;
- asosiy buyurtmachi tashkilot, korxonalar va muassasalar bilan korporativ hamkorlikni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda talabalarning malakaviy amaliyoti samaradorligini oshirish masalalarini muhokama qiladi va ularni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;
- xorijiy mamlakatlarning oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;
- ta‘lim xizmatlari bilan shug‘ullanuvchi kichik korxonalar, firma va kurslar faoliyati haqida rahbarlarning hisobotlarini eshitadi hamda tegishli qaror qabul qiladi;
- universitet talabalari va xodimlarining texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini takomillashtirish bo‘yicha tadbirlarni belgilaydi.

### **3. Kengash faoliyatini tashkil etish**

**3.1.** Kengash o‘z faoliyatini har o‘quv yili uchun ishlab chiqiladigan rejaga muvofiq amalga oshiradi. Kengash rejasi Kengash tomonidan ko‘rib chiqilganidan so‘ng universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi. CAMUning o‘quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma‘naviy-ma‘rifiy va tashkiliy ishlarga doir barcha masalalar bo‘yicha Kengash qarorlari ochiq ovoz berish tartibida ko‘pchilikning ovozi bilan qabul qilinadi. Kengash majlisi uning tarkibidagi a‘zolarining 2/3 qismi ishtirok etgandagina haqiqiy hisoblanadi.

Professor-o‘qituvchilar tarkibi lavozimlarini egallash hamda professor yoki dotsent ilmiy unvonlarini berish bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlovlar va taqdimnomalar yuzasidan qarorlar yopiq ovoz berish yo‘li bilan belgilangan tartibda qabul qilinadi.


**3.2.** Kengash qarorlari CAMU rektori tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng kuchga kiradi.

**3.3.** Kengash majlisi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomalar Kengash raisi va ilmiy kotibi tomonidan imzolanadi.

**3.4.** Kengash raisi muntazam ravishda Kengash qarorlarining bajarilishi bo‘yicha tekshiruvlar tashkil etadi va Kengash a‘zolariga ularning natijalari haqida axborot beradi.

### **4. Yakuniy qoidalar**

**4.1.** Ushbu Nizomning amal qilish muddati davomida unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish qonunchilik asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi va rasmiylashtiriladi.



**CENTRAL ASIAN MEDICAL UNIVERSITETI**  
**xalqaro tibbiyot universiteti Kengash a'zolari**

<b>№</b>	<b>F.I.SH.</b>	<b>Lavozimi</b>	
1	Mamasadikov Nurillo Shukrullayevich	Rektor	Rais
2	Kuzibayeva Umida Axmadjonovna	Rektor maslahatchisi	A'zo
3	Botirov Murodjon Turg'unboyevich	O'quv ishlari va xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor	Rais o'rinbosari
4	Normatova Shaxnoza Anvarovna	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor	Rais o'rinbosari
5	Tirkashev Erkinjon Xaydaraliyevich	Universitet klinikasi direktori	A'zo
6	Mamarizayev Xayrullo Obidjonovich	Dekan	A'zo
7	Umarov Odil Maxmudovich	Farg'ona viloyat ko'p tarmoqli shifoxonasi bosh shifokori	A'zo
8	Ismailov Muxiddin Mamadaliyevich	Farg'ona viloyati Stomatologiya klinikasi bosh shifokori	A'zo
9	Qo'chqorov Shaxobiddin Burxonovich	Farg'ona viloyat bolalar ko'p tarmoqli shifoxonasi bosh shifokori	A'zo
10	Primqulov Bobur Qaxramonovich	Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i	A'zo
11	Maxmutaliyev Nodir Azimovich	Farg'ona viloyati nogironlarni reabilitatsiya qilish markazi direktori	A'zo
12	Yuldashov Sherzod Sattorovich	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i	A'zo
13	Abdumanonov Axrorjon Adxamjonovich	O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i	A'zo
14	Ismailova Sayyora Tolkinovna	Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i	A'zo

15	Eryigitova Lobarxon Abdukadirovna	Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrası mudiri	A'zo
16	Shokirova Maxbuba Nazirg'ulomovna	Tillar kafedrası mudiri	Kengash kotibi
17	G'aniyev Komolidin Xalilovich	Tibbiy biologiya va mikrobiologiya kafedrası mudiri	A'zo
18	Muydinov Maxmud Raxmatovich	Kimyo va Farmakologiya kafedrası mudiri	A'zo
19	Nishonov Yusibjon Nishonovich	Normal va topografik anatomiya kafedrası mudiri	A'zo
20	Nasirdinov Mavlonjon Ziyomiddinovich	Patologiya asoslari va sud tibbiyoti kafedrası mudiri	A'zo
21	Mamajonov Ma'rufjon Muxtorovich	Gigiyenik va tibbiy jarayonlarni modellashtirish kafedrası mudiri v.v.b.	A'zo
22	Sadikov Umarali Tursunbayevich	1-Ichki kasalliklar kafedrası mudiri	A'zo
23	Xolboboyeva Shaxnozaxon Asadullayevna	2-Ichki kasalliklar kafedrası mudiri v.v.b.	A'zo
24	Botiraliyev Aziz Shukurjonovich	Xirurgiya kafedrası mudiri	A'zo
25	Aloviddinov Saloxiddin Ziyovitdin o'g'li	Terapevtik va xirurgik stomatologiya kafedrası mudiri v.v.b.	A'zo
26	Kabilova Dilbar Kamilovna	Pediatriya va bolalar jarroxligi kafedrası mudiri v.v.b.	A'zo
27	Tuychiyev Dilmurod Parpiboy o'g'li	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i	A'zo
28	Maxmudov Dilshod	Bosh hisobchi	A'zo
29	Shermatova Gulmira Raxmatovna	Katta yurist konsult	A'zo
30	Davronov Baxodirshox	CAMU Yoshlar ittifoqi etakchisi	A'zo
31	Komilov Nodirjon	CAMU Yoshlar koordinatori	A'zo